

## MUDDATLI NORMAL TUG'RUQNI UCHICHI DAVRI - PLATSENTANI TUSHISH DAVRI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti PhD

**Tilyavova Sitora Amirzoda**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

1-son Akusherlik va Ginekologiya kafedrasи ordinatorsi

**Qo'ldosheva Feruza Ibragim qizi**

**Do'smurodova Maqsuda G'ayratovna**

**Anotatsiya:** Ushbu maqola shifonxonadan tashqarida kuzatilgan tug'ruq jarayonlarida platsenta yani yo'ldoshni normal holatda qandey tushishi va tug'ruqni uchinchi davrida o'tkir qon ketishlarni oldini olish va boshqarish qoidalariga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** shok, bachodon, spazm, hamroh, yo'ldosh, plansenta, Krade, tashqi jinsiy a'zolar qonashi, aorta, bachodon bo'yuni, qisqaruvchanlik, muskullar tonusi

**Annotation:** This article is devoted to the rules for preventing and managing acute bleeding in the third period of labor, as well as how the placenta, i.e. the placenta, falls normally in labor processes observed outside the hospital.

**Key words:** shock, uterus, spasm, companion, placenta, placenta, Krade, external genital bleeding, aorta, cervix, contractility, muscle tone

**Аннотация:** Данная статья посвящена правилам профилактики и купирования острого кровотечения в третьем периоде родов, а также тому, как плацента, т. е. плацента, выпадает в норме при родовых процессах, наблюдаемых вне роддома.

**Ключевые слова:** шок, матка, спазм, компаньон, плацента, плацента, Краде, наружное генитальное кровотечение, аорта, шейка матки, сократимость, мышечный тонус.

Mudatli normal tug'ruq o'z navbatida 3 ta davrga ajratiladi va bu davrlar o'z ahamiyatiga ega. Bu davrlar birinchi bor tug'uvchi va qayta tug'uvchi ayollarda turlichay vaqt oralig'ida kechadi.

Tug'ruq davrlari:

1- davr bachodon bo'yuni ochilish davri. Bu davr o'za navbatida 2 ta kichik fazaga bo'linadi, a) I faza latent faza bachodon bo'ynini 4 sm gacha ochlish vaqt, bl II faza aktiv faza bachodon bo'ynini to'liq ochilgunga qadar bo'lgan vaqt. 1 - davr birinchi tug'uvchi ayolarda 12- 16 soatdan 24 soatgacha davom etadi. Qayta tug'uvchi ayollarda bu vaqt ikki barobar qisqaradi.

2- davr homila haydalish davri. Bu davr birinchi tug'uvchi ayollarda 1,5 yoki 2 soat davom etadi, qayta tug' uvchi ayollarda 0.5 yoki 1 soat davom etadi.

3 - davr hamroh yani plansentani tug'ilish davri. Bu davr homila tug'ilganidan so'ng 10-15 mindan 2 soatgacha davom etadigan davr

3 - davr ya'ni yo'ldosh tushish davrida ko'ngilsiz holatlar ko'plab uchrab turadi. Shulardan ko'p kuzatiladigani havfisi qon ketishdir.

Yo'ldosh tushish davrida hamisha qon ketadi. Normal yo'ldosh ko'chib tushganda ko'pi bilan odatda ayol tana massasini 0,5% miqdorida ya'ni o'rtacha 250ml yoki 300ml qon yo'qotadi. Bu jarayon qandey amalga oshadi degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Yo'ldosh ko'chgandan so'ng bachadon qisqaradi, natijada yo'ldosh bachadonga tushadi va bachadonning qonayotgan tomirlari qisilib, qon oqishi to'xtaydi.

Agar bachadonni qisqaruvchanligi yetarli bo'lmay, plansentani ko'chish jarayoni buzilsa, plansenta batamom ko'chmaydi, qisman ko'chadi. Plansenta batamom ko'chmaguncha qisman ko'chgan joylardagi qon tomirlar ochiw turgani evaziga odatdagagi normal holatga nisbatan ko'proq qon yo'oqtilishi kuzatiladi.

Agar plansenta bamom ko'chib tushsayu lekin bachadon bo'shlig'ida turib qolsa ham qon oqishi to'xtamaydi va ayol hayotiga havfli holat yuzaga kelishi mumkin.

Yo'ldoshni ko'chishi va bachadondan chiqish jarayoni buzilib qon ketishi bir qancha sabablarga bog'liq. Ularni quyidagicha guruhash mumkin.

1. Bachadon tonusi va qisqaruvchanligini buzilish.
2. Plansenta tug'ilish davrining noto'g'ri boshqarilishi
3. Plansentani bachadonda noto'g'ri joylashuvi.
4. Plansentaning bachadonga chin va soxta yopishuvi

Ko'p qon yo'qotish va plansentani tushish davrini to'g'ri amalga oshirish uchun har bir doyalil qilayotgan inson quyidagi ketma ketlikni bilishi va amal qilishi ayol salomatligi va hayotiga judda katta foyda bergen bo'lar edi.

Plansentani ko'chirish yoki tushirish maqsadidam bachadon bo'shlig'iga qo'l suqish infeksiya kirish jihatidan hamisha havf bo'yicha yuqori o'rinni egallagan. Sabab bachadonda suqulgan qo'l vulva va qin mikroflorasini surib keng yuzdagi ochiq jarohat yuzsiga olib kiradi

Shu sabab ham tug'ruqdan keyin septik kasalliklar boshqa kasalliklarga nisbatan oldingi o'rinda turadi

Homila tug'ilganidan so'ng ikki soat ichida tashqi amallar bilan yoki normal holatda yo'ldoshni o'zi ko'chmasa tushmasa quyidagi ketma ketlikda yo'ldoshni tushirib olishga harakat qilish kerak.

Avvalom ayol tekis joyga yotqiziladi. Agar qovuq to'lgan bo'lsa katetir orqali bo'shatiladi.

Tashqi jinsiy azolar yod, spirt, vodorod pekis yoki suyuqsovun bilan tozalanadi.

Bachadonga qo'l suquvchi doya qo'lini yacshilab xo'jalik sovunida yuvishi agar bo'lsa bir martalim steril qo'lqoplardan foydalanishi zarur

Agar steril qo'l qoplar bo'lmasa, qo'lni sovunlab yuvgandan so'ng, spirt bilan yoki yod bilan aseptika qoidalriga mos ravishda dezenfeksiya qilish kerak

Tozlangan qo'llar bilan qisman ko'chgan yoki umuman ko'chmagam plansenta qismlarini yoki qoldiqlarni olish uchun chap qo'l bilan tashqi jinsiy yoriqlar keriladi keyin o'ng qo'l akusherlik qo'li shaklida qin va bachadon bo'yni bo'ylab ichkariga kiritiladi. Va asta sekin yo'ldosh o'nashgan joy aniqlanadi va tashqaridagi qo'l yordamida bir biriga taqalgan holatda yo'ldoshni ko'chirishga kirishiladi yoki yo'ldoshni qoldiq qismlarni aniqlab ularni tozlash jarayoniga kirishiladi.

Agar bachadon yovldoshdan yoki uning qoldiq qismlaridan to'liq tozalandi deyilgan xulosa kelinsa qo'l sekinlik bilan chiqarib olinadi va tashqi tomondan bachadon uqlanadi

Bir muddat qorin aortasi qo'l bilan bosib turiladi keyin qo'yib yuboriladi

Yo'ldosh to'liq tushgandan keyin qon ketishi 5 daqiqada to'xtaydi.

Har ehtimoliy holatlar uchun uyda amalga oshgan tug'ruqlardan so'ng ayolni va bolani vrach nazoratida o'tkazish lozim.

Agar jarayonni olib borishga tug'duruvchi doya ikkilansan tez tibbiy yordam telifon qilishi kerak.

Tugruq davrlari aks etgan

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tug'ruq davrlari hammasi ham o'z ahamiyatiga ega va bu jarayon judda murakkab hisoblanadi. Hayotda hamma vaqt kutilmagan holat kuzatiladi. Kam uchrasada ucharshi mumkin bo'lgan holatlarga bag'ishlangan ushbu maqola oz bolsada ona hayotini saqlab qolishga o'z hissasini qo'shishidan minnatdormiz va maqola mutoalasi uchun ajratgan vaqtiz uchun rahmat!

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ya.N.Allayarov akusherlik va ginekologiya kitobi 255-265 betlardan
2. M. F Ziyayeva, G. X. Mavlyanova ginekologiya kitobi 2018 14-19 betlar

### Internet saytlari

1. <https://avitsenna.uz/hayz-funksiyasining-buzilishi/>
2. <https://www.savol-javob.com/hayz-haqida-toliq-malumot/>
3. <https://avitsenna.uz/hayz-funksiyasining-buzilishi/>
4. Med24